PAXTACHI TUMANI MIKROTOPONIMLARINING STRUKTURAL-TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ergasheva Nodira Abdurayimovna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchi
E-mail: ergasheva.68@list.ru

Annotatsiya: Bugungi kunda o‘zbek tili toponimikasi oldiga O‘zbekiston Respublikasining til, xususan, toponimik siyosatini izchil, mukammal amalga oshirishga yo‘naltirilgan, zamonaviy taraqqiyot tamoyillari va tilshunoslikning zamonaviy ilmiy paradigmalariga asoslangan yangi tadqiqotlar yaratish vazifasi qo‘yilmoqda. Ushbu maqolada asosan Paxtachi tumani mikrotoponimlarining tarkibiy qismlari va ma’no jihatdan turlari haqida so‘z boradi. Toponimlarni lingvistik jihatdan o‘rganish onomastik tahlilning eng murakkab va ko‘p qirrali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada tilning morfologik, sintaktik, orfografik, orfoepik hamda leksik-semantik xususiyatlarini chuqur o‘rganish talab etiladi. Har bir joy nomi muayyan grammatik va ma’no jihatidan tizimli ravishda shakllanib, u o‘z ichida tarixiy, ijtimoiy hamda madaniy omillarni mujassam etadi. Toponimlarning morfologik qurilishi, so‘z yasalishidagi qonun-qoidalar, ularning grammatik turkumlanishi, yasovchi affikslarning qo‘llanish tartibi, qadimiy leksemalarning yangidan nom yaratishdagi o‘rni, hamda affikslarning tarqalish areali kabi masalalar toponimlarning morfologik va sintaktik xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar orqali yangidan yaratilgan nomlarning kelib chiqishi, ularning tarixiy o‘zgarish jarayonlari va milliy onomastika tizimining umumiy manzarasi aniqlashtiriladi.
Sodda toponimlarni morfologik jihatdan tahlil qilganda, ularni tuzilish shakliga ko‘ra tub (sodda) va yasama atoqli otlar guruhlariga ajratish mumkin. Tub toponimlar odatda so‘z o‘zagiga tayanadi va ularning paydo bo‘lish manbalari til taraqqiyotining dastlabki bosqichlariga borib taqaladi. Shu bois, yasama yoki qo‘shma shakldagi toponimlar bilan solishtirilganda, tub nomlar leksik yaratilish jihatidan avvalo vujudga kelgan birlamchi nomlar sifatida e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: toponimlar, mikrotoponimlar, Paxtachi tumani, sodda asos, fe’l, ot asos, sifat asosli toponimlar.

Аннотация: Сегодня перед топонимикой узбекского языка стоит задача создания новых исследований, основанных на современных принципах развития и современних научных парадигмах языкознания, направленных на последовательную и совершенную реализацию языковой, в частности, топонимической политики Республики Узбекистан. В этой статье в основном говорится о компонентах и материальных типах микротопонимов Пахтачинского района. Лингвистическое изучение топонимов является

ISSN 3030-3907

одним из самых сложных и многогранных направлений ономастического анализа. В связи с этим требуется глубокое изучение морфологических, синтаксических, орфографических, орфоэпических и лексико-семантических особенностей языка. Каждое место формируется на системной основе с определенной грамматической и смысловой точки зрения, которая включает в себя исторические, социальные и культурные факторы. Морфологическое строение топонимов, их грамматическая классификация, порядок применения составных аффиксов, роль древних лекций в создании новых имен, а также ареал распространения аффиксов имеют важное значение в определении морфологических и синтаксических особенностей топонимов. Проводимые в этом направлении исследования уточняют происхождение вновь созданных имен, их исторические процессы и общую картину национальной ономастической системы. При морфологическом анализе простых топонимов их можно разделит на группы коренных и искусственных существительных. Коренные топонимы обычно опираются на слово, а их происхождение восходит к ранним стадиям развития языка. Таким образом, по сравнению с искусственными или комбинированными топонимами коренные имена признаются первичными по лексическому строению.

Ключевые слова: топонимы, микротопонимы, Пахтачийский район, простая основа, глагол, основа существительных, качественные топонимы.

Abstract: Today, the toponymy of the Uzbek language is faced with the task of creating new studies based on modern principles of development and modern scientific paradigms of linguistics, aimed at the consistent and perfect implementation of the linguistic, in particular, toponymic policy of the Republic of Uzbekistan. This article mainly talks about the components and material types of microtoponyms of the Pakhtachinsky district. Linguistic study of toponyms is one of the most complex and multifaceted areas of onomastic analysis. In this regard, a deyep study of the morphological, syntactic, spelling, spelling and lexico-semantic features of the language is required. Each place is formed on a systematic basis from a certain grammatical and semantic point of view, which includes historical, social and cultural factors.The morphological structure of toponyms, their grammatical classification, the order of application of composite affixes, the role of ancient lectures in creating new names, as well as the distribution area of affixes are important in determining the morphological and syntactic features of toponyms. Research in this direction clarifies the origin of the newly created names, their historical processes and the overall picture of the national onomastic system. In morphological analysis of simple toponyms, they can be divided into groups of indigenous and artificial horses. Indigenous place names generally rely on the

ISSN 3030-3907

word, and their origins date back to the early stages of language development. Thus, compared to artificial or combined toponyms, native names are recognized as primary in lexical structure.

Key words: toponyms, microtoponyms, cotton-growing area, simple stem, verb, horse stem, qualitative toponyms.

Kirish

Bugungi kunda o‘zbek tili toponimikasi oldiga O‘zbekiston Respublikasining til, xususan, toponimik siyosatini izchil, mukammal amalga oshirishga yo‘naltirilgan, zamonaviy taraqqiyot tamoyillari va tilshunoslikning zamonaviy ilmiy paradigmalariga asoslangan yangi tadqiqotlar yaratish vazifasi qo‘yilmoqda. «Qanchalik qiyin bo‘lmasin, faqat oldinga – yangi, yuksak marralar sari boramiz» .

Toponimlarni tahlil qilish orqali ma’lum bir hududning tarixiy rivojlanish bosqichlari, tabiiy-geografik sharoiti, siyosiy voqeliklari, etnik tarkibidagi o‘zgarishlar, iqtisodiy taraqqiyot darajasi, xalqaro munosabatlarda tutgan o‘rni, shuningdek, aholining ijtimoiy-ma’naviy hayoti haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Joy nomlarini lingvistik jihatdan o‘rganish o‘zining murakkab va o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Toponimlarni tasniflash, ularning semantik va grammatik xususiyatlarini ochish, har bir tilning onomastik tizimini chuqur o‘rganishga xizmat qiladi va tilshunoslik uchun katta ahamiyatga ega.

Joy nomlarini tashkil etuvchi so‘zlarni til lug‘aviy tarkibidan aniqlash, oddiy leksemalarni ajratishga nisbatan murakkabroq jarayon hisoblanadi. Chunki bunday so‘zlar, odatda, nutqda chegaralangan holda, muayyan hudud yoki mahalliy aholi doirasida qo‘llanadi. Ular umummilliy leksikonga kirmagan bo‘lishi mumkin, bu esa ularni o‘rganishda alohida yondashuvni talab etadi. Toponimlarni lingvistik aspektda tahlil qilish onomastik tadqiqotlarning eng murakkab yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bunda tilning morfologik, sintaktik, orfografik, orfoepik hamda leksik-semantik xususiyatlariga jiddiy e’tibor qaratiladi. Har bir joy nomi muayyan grammatik va ma’noviy tizim ichida shakllanadi va o‘z ichiga tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillarni jamlagan bo‘ladi. Toponimlarning morfologik tuzilishi va so‘z yasalish prinsiplari, ularning grammatik turlari, yasovchi affikslarning qo‘llanish xususiyatlari, tarixiy so‘zlardan yasovchi element sifatida foydalanish holatlari, so‘z yasashda ishtirok etuvchi affikslarning areali kabi masalalar toponimlarning morfologik-sintaktik xususiyatlarini belgilab beradi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar tildagi yasama nomlarning shakllanish manbasini ochish, uning tarixiy dinamikasini anglash va milliy onomastika tizimini to‘liq ifoda etish imkonini beradi. Sodda toponimlar morfologik jihatdan tahlil qilinganda, ularni tuzilish xususiyatiga ko‘ra ikki asosiy guruhga — tub (sodda) va yasama atoqli otlarga

ISSN 3030-3907

ajratish mumkin. Tub toponimlar odatda so‘zning o‘zagidan tashkil topgan bo‘lib, ularning paydo bo‘lish tarixi tilning ilk bosqichlariga borib taqaladi. Shu jihatdan, yasama yoki qo‘shma toponimlar bilan solishtirilganda, tub nomlar tilda hosil bo‘lishi jihatidan birlamchi sanaladi. Tub toponimlar joy nomlarining boshqa turlari — yasama va qo‘shma nomlar uchun leksik va grammatik asos sifatida xizmat qiladi. Masalan, tepa, qo‘rg‘on, buloq, ko‘l, obod, ariq, soy, bozor, bog‘, bosh, masjid, ota, saroy kabi tub so‘zlar toponim yaratishda faol ishtirok etadi. Ushbu so‘zlar asosida ko‘plab yasama va qo‘shma joy nomlari yuzaga kelgan. Bunday so‘zlar ko‘p hollarda joyning tabiiy xususiyatini, madaniy-ijtimoiy ahamiyatini ifodalashda xizmat qiladi. Toponimlarni morfologik jihatdan tahlil etishda asosiy e’tibor ularning ichki tuzilishi — strukturasiga qaratilgan bo‘ladi. Morfologik struktura deganda so‘zning qanday shaklda tuzilgani, ya’ni uning o‘zagi, unga qo‘shilgan affikslar, qo‘shimcha elementlar va ularning o‘zaro munosabati nazarda tutiladi. Har bir so‘z muayyan morfologik strukturaga ega bo‘lib, u tinglovchi yoki o‘quvchi uchun semantik va grammatik ma’lumot tashuvchi vosita sifatida xizmat qiladi.So‘z strukturasi to‘liq bo‘lishi uchun u qator strukturaviy elementlardan — tovushlar, ularning birikmalari, o‘zak va asos shakllaridan tashkil topgan bo‘ladi. Joy nomlarining morfologik tahlili ana shu elementlarning shakllanish va qo‘llanish xususiyatlarini ochishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida tilning onomastik tizimini to‘liq anglashda muhim omil hisoblanadi. So‘zlardagi struktural element o‘zakning tub va yasama, sodda va qo‘shma ekanligi bilan ham xarakterlanadi. Odatda, sifatga xos so‘zlar nomlarning har xil sifat komponentlarini aniqlash uchun ishlatiladi. Joy nomlarining nomlanishida sifatlarning qo‘llanishi vazifasi ham shudir. Ba’zida tub negizli sifatlar mustaqil nomlarni nomlashda ishlatiladi: Oq, Qora, Katta, Pastki, quyi, Baland, kabi. Keltirilgan misollardan shuni aniqlash mumkinki, turkiy so‘zlardagi tub so‘z hech qanday aniqlovchili belgilarsiz, o‘ziga xos xususiyatlar bilan o‘zbek makro- va mikrotoponimlarni hosil qiladi.Tub so‘zlarga aniq so‘z hosil qiluvchi affikslar (aniqlovchi belgilar) qo‘shilishi bilan yasama so‘zlar (nomlar) hosil bo‘ladi. Yasama toponimlar tub so‘zlarning yasovchi affikslarini qabul qilib, o‘zgargan ko‘rinishidir. Ularning tuzilishini o‘rganish birmuncha murakkab, chunki, ayrim joy nomlari tildagi yasama so‘zlardan tuzilgan. Bir qancha yasama otlar onomastikada o‘zak va qo‘shimchalardan atoqli ot yasalishi jaraènida hosil bo‘lgan. Masalan: Olmazor, Paxtakor, Qumloq, Zargar, Shodlik, Uchuvchi, Taqachi, Ahillik, Ipakchi, Uysoz, O‘rikzor, Qo‘rg‘oncha, Qiyali, Bezakchilik, Guliston va hokozo. Yasama toponimlar o‘zakka so‘z yasovchi affikslar qo‘shilishi natijasida xosil bo‘ladi. Toponimlar yasalishida ot yasovchilik, -chi, -kor, -gar, -loq, -chilik, -kent, -iston, -ak, -zor, -soz; sifat yasovchi -li kabi affikslar ishtirok

ISSN 3030-3907

etadi. Keltirilgan affikslar ot, son, sifatga qo‘shilib joy nomlarini ifodalaydi. Bu tarzda yasalishini toponomikaga moslash mumkin emas. Chunki yuqoridagi singari qo‘shimchalar turdosh otlar ham yasaydi. Toponimning o‘zagi bo‘lgan so‘zning, avvalo, turdosh ot sifatida yasalganligi èki atoqli ot tarzida yuzaga kelganligini nazarda tutish lozim. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, toponimlar tub va yasama bo‘lib, yasama toponimlar yasovchi elementlar, affikslar èrdamida vujudga kelgan toponimlarni tashkil etadi. Affikslar èrdamida yasalgan joy nomlari ko‘pchilikni tashkil qiladi, ularning yuzaga kelishi yasovchi affikslar va o‘zaklarning xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Toponimlarning tuzilishiga ko‘ra turlari, toponimik model tiplari turkiy tilshunoslikda, jumladan, o‘zbek tilshunosligida T.A.Begjanov, K.Abdimuratov, O.T.Molchanova, E.M.Murzayev, N.Oxunov, Z. Do‘simov, T.Nafasov, T. Enazarov, N.Uluqov, L.G.Karimova, Y.Ne’matovalarning ishlarida tadqiq etilgan. Toponimik indikator terminini o‘zbek toponimikasida ilk marta Z. Do‘simov ilmiy muomalaga olib kirgan. Tuman hududida uchraydigan joy nomlari morfologik tuzilishi va grammatik qurilishi asosida tizimli tahlil etiladi. Ushbu tahlil natijasida toponimlar tuzilish xususiyatlariga ko‘ra aniq turlarga ajratiladi. Xususan, toponimlarning sodda (tub), yasama, qo‘shma va nisbiy nomlardan tashkil topgan shakllari, ulardagi yasovchi affikslar, leksik o‘zaklar, so‘z yasalishida ishtirok etuvchi morfemalar hamda grammatik formalar tahlil qilinadi. Shu orqali Paxtachi tumanidagi joy nomlarining lingvistik tabiati, ularning tuzilish prinsiplari va tilimizdagi onomastik an’analar bilan bog‘liq jihatlari aniqlanadi. Toponimlarga doir yuqoridagi tasniflarga asoslangan holda Paxtachi tumani toponimlarini tuzilishiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1. Sodda tarkibli toponimlar. 2. Qo‘shma tarkibli toponimlar. 3. Murakkab tarkibli toponimlar. Tarkibi birgina lug‘aviy asosdan iborat obyekt nomlari sodda tarkibli oronimlardir. Masalan, Xo‘ja (qishloq, urug‘ nomi), Darg‘a (qishloq), Chambar (tog‘ nomi) kabi. Sodda tarkibli toponimlar ko‘pincha konversiya asosida hosil bo‘ladi. Bu tipdagi topo nimlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin: 1) sodda tub toponimlar; 2) sodda yasama toponimlar. Sodda tub toponimlar asosan apellyativlarning onomastik konversiya usuli asosida toponimga ko‘chishidan hosil bo‘ladi. O‘zbek tilining sodda tub tarkibli toponimlarini morfologik jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin: 1) ot asosli sodda tub toponimlar: Bodoy (qishloq, urug‘ nomi), Ismat (tog‘), Ko‘rpa (urug‘ nomi), Chashma (buloq), Rajab (urug‘ nomi), Xo‘ja (urug‘ nomi), Nayman (qishloq, urug‘ nomi); Mojor—Samarkand viloyati Narpay va Paxtachi tumanlaridagi qishloqlarning nomlari mojor (mojar) —o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. Ular XIX asr boshlarida Samarkand atrofida tog yonbagirlarida, Narpay arig‘i buylarida, Shahrisabz vohasida yashaganlar. Ba’zi bir olimlar mojorlar

ISSN 3030-3907

Vengriyaning asosiy aholisi madyarlar bilan qon-qarindosh deb hisoblaydilar Tumor (urug‘ nomi), mojor (qishloq, urug‘ nomi); Mazkur toponimga O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘atida esa mualliflar quyidagicha ta’rif berganlar: “MOJOR//MOJAR//MAJOR – qishloq. Samarqand viloyati Narpay tumani; Qashqadaryo viloyati Guzar, Chiroqchi tumanlari. Majarlar Magiylar tomonidan Vengriyaning umumiy aholisi bilan bog‘liq qabila deb hisoblanadi”. Demak, mazkur toponim O‘zbekiston bo‘ylab tarqalgan toponimlardan biridir. BADOY//BADAY - Samarqand viloyatidagi Narpay, Ishtixon, Paxtachi, Oqdaryo tumanlaridagi qishloqlar nomi. Baday o‘zbek urug‘laridan birining nomi bo‘lib, ular avval Xorazm va Qoraqalpog‘istonda yashaganlar. XIX asr boshlarida Surxondaryo vodiysi, Bekobod bilan Zomin orasidagi dashtlarga tarqalgan. Ishtixon tumanida Badayovul, Qo‘riqbaday nomli qishloqlar mavjud(Qorayev, 1978: 31). 2) sifat asosli sodda tub toponimlar: Polvon (urug‘ nomi), Kalta (urug‘ nomi), semiz (tepa, qishloq); Kal (urug‘ nomi); Uzun (urug‘ nomi), Cho‘michli, ; 3) fe’l asosli sodda tub toponimlar: O‘ramas (urug‘ nomi), Quvondiq (qishloq, urug‘ nomi), Chuvilloq (urug‘ nomi; 4) son so‘z turkumi asosli toponimlar: yuz (urug‘ nomi) kabi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida sodda tub toponimlarning asosiy qismini morfologik jihatdan ot asosli nomlar tashkil etadi. Paxtachi tumanida toponimiyasida sodda yasama so‘zlardan hosil bo‘lgan nomlar ham uchraydi: Bolg‘ali, Boltali, To‘g‘ali, Urganji, Eroni, Qarnovi, Boyli, Po‘latchi, Chuvilloq, Cho‘michli, Ayronchi, Qangli kabi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2018 yil, 29 dekabr.
2. Zoitova Sh.A. Toponimlarning grammatik tuzilishi. Maqola.Pedagog respublika ilmiy jurnali. Toshkent, 2024, 206-b.
3. Begmatov E., Xudayberganov R. Toponimik indikatorlarning ilk tadqiqotchisi. E’zoz. Ilmiy ishlar to‘plami. – Toshkent, 2006. 42-47-b.
4. Nafasov T., Nafasova V.T.O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. 37-b.
5. Qorayev S. Toponimika. Toshkent, 1978, 31-b.
6. Xudoyberganov R.Y. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Toshkent, “Donishmand ziyosi”, 2022, 255-b.

ISSN 3030-3907